



“PUANKARE” ASARINING INSON DUNYOQARASHIGA TA’SIRI

Abduvoidova Marjona

O'zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim va gumanitar
fanlar fakulteti talabasi

O'tayarova Umida

Ilmiy rahbar: ass.

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-October 2023 yil

Ma'qullandi: 24-October 2023 yil

Nashr qilindi: 27-October 2023 yil

KEY WORDS

badiiy kitob, inson hayoti, “Punakare”, matematik teorima, vaqt qadri, oqil maslahatgo'y, oila tayanchi

ABSTRACT

Ushbu maqolada “Puankare” asarining badiiy, poetik tahlili amalga oshirilgan. Inson hayotining mazmuni, yashashdan maqsad, vaqtning qadriga yetish kabi omillar asar misolida ochib berilgan.

Inson borliqdagi boshqa yaratilardan o'zining aqli, ongi, fikrlashi bilan farq qiladi. Fikr teran bo'lishi uchun esa dunyoqarash keng bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa badiiy kitoblar o'qish asqotadi. Shu bois hozirgi kunda kitobxonlik madaniyati va kitob mutolaasiga davlat miqyosida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarori ham fikrimizni tasdiqlaydi. Zero kitobga oshno bo'lgan qalb ezgulikka, mehr-muhabbatga to'la bo'ladi.

Shunday asarlar borki, qisqa hajmda yozilgan bo'lsa-da, kitobxon ongida bir umr qolib ketadi. U asarni o'qish mobaynida inson hayotini ham o'zgartirishga, ijobiy tomonlarga yo'naltirishga harakat qiladi. Ana shunday ijod namunalaridan biri “Puankare”dir.

Qisqa hajmli va serma'no “Puankare” asari Abduqayum Yo'ldosh qalamiga mansub bo'lib, asar boshlanishida hech narsa abadiy emasligini, har bir narsa kun kelib o'z qiymatini yo'qotishi mumkinligi haqidagi haqiqatlar oddiy portfel misolida ochib beriladi. Kishi o'ylab qoladi: demak, hamma narsani o'z vaqtida qadriga yetish kerak. Vaqtning ortga qaytarish mumkin emasligini bilgan asar qahramoni bir vaqtlar do'stining aytgan matog'ini olib qolmaganiga afsuslanadi. “Umuman olganda irimlarga ishonmaganim sababli qandaydir bo'ring tana azosini “baxt va omad keltiradi”, - deb olib yurish men uchun g'ayri tabiiy bo'lib ko'rindi. Chunki, boshimizga kelgan hamma narsa Ollohdan deb bilaman. Tumorga ishonib “u menga omad keltiradi, -deyish o'rniga maqsadi tomon to'g'ri harakat qilish ancha ma'qul”, - deydi keyinchalik o'sha voqeani eslar ekan..

Tasodifni qaranki, 2012-yilda yozilgan asardagi voqealar hozir ham hayotimizda ba'zan uchrab turadi. Masalan, qahramonimizni mashina turtib ketgan vaqti atrofdagilar unga yordam berish o'rniga “...Bu endi shopirni sog'ib ichadi”, -qabilidagi gaplarni aytadi. Insonning asl niyatini bilmay turib xulosa chiqarish ko'p hollarda yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi.

Asarni o'qish davomida shuni angladimki, bu hikoyada faqatgina gipotezani isbotlash emas, balki do'stga sadoqat bilan birga oila masalalarini ham qamrab oladi. Ma'lum bir mablag'ga "erishaman" deb do'stiga xiyonat qilish, uni aldash, eng asosiysi uning pulga muhtoj ekanligini bila turib bu ishlarni amalga oshirish naqadar pastkashlik ekanligi hikoyada ochib berilgan.

"Kuchli erkak ortida – kuchli ayol turadi". Asarni o'qir ekanman bu maqol xayolimda takror-takror aylanaverdi. Darhaqiqat, ayol kishi sabrli, mehribon, g'amxo'r bo'lishi lozim. Shundagina umr yo'ldoshi uchun munosib jufti halol bo'la oladi. Hozirgi barcha yoshlarga ham bu asarni o'qib chiqishni tavsiya qilgan bo'lar edim. Zora ajrimlar soni kamaysa. Inson nutqi ham ko'p narsani hal qiladi. Qahramonimiz qaynonasiga "...qizingiz yomo-on", degani uchun bir umr afsuslanadi. "Yetti o'lchab, bir kes" maqoli shu o'rinda asqotadi. Shunchaki, "Qizingiz yaxshi", - deganida balki bunchalik qiynalmagan va hayoti ham baxtli davom etgan bo'larmidi? Teoremani isbotlay olmaganida ayolining ham aybi katta. Boriga sabr qilib, turmush o'rtog'ini to'g'ri tushunganda gipoteza tugallangan bo'lar edi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida o'zbek oilalari qanday bo'lishi kerak ekanligini Yusufbek hoji va uning oilasi misolida to'laligicha ochib bera olgan. Yodingizda bo'lsa, oilada Yusufbek hojining aytgani aytgan, degani degan bo'lar edi. Ana shunday oilalar, albatta, mustahkam bo'ladi, deb ayta olaman. Ayol oilada boshliq bo'lishga emas, balki, oqil maslahatchi, xonadon tinchligining posponi bo'lishga intilishi kerak.

Asar qahramonining "men...men mukofot pulidan voz kechaman. Mayli, talaba olsin, unga kerakdir. Ammo men o'zimga tegishli besh yuz ming dollardan voz kechaman. To'laligicha!"- degan gaplarining o'zidayoq ilm qanchalik ulug' bo'lsa, ilmli odam ham shunchalik yetuk ekanligini ko'rdim. Asar qahramoniga mablag' emas, balki bir asrdan buyog'iga yechilmagan jumboqni topish baxt berar edi. Asarni o'qib tugatar ekanman „Xudoyim! Meni o'ttiz yil orqaga qaytar, Xudoyim... Xudoyim, meni o'ttiz yil orqaga qaytar..."- deya yozilgan satrlar meni o'ylantirib qo'ydi. Qahramonimiz o'ttiz yil ortga qaytganda teorema isbotiga qattiq kirishgan bo'lar edi. Ammo men-chi? Men ham yana o'ttiz yildan keyin yo'qotgan vaqtinga achinmaymanmi? Asarni o'qib tugatib vaqtни qadrlashni o'rgandim. Hamma narsani o'z vaqtida qadriga yetishga odatlandim. Hozir esa vaqt o'tib qila olmagan ishlarimdan afsuslanmaslik uchun harakatdaman. "Puankare" bu asarni o'qishni tengdoshlarimga ham tavsiya etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqayum Yo'ldosh "Puankare". T.: Ma'naviyat. 2023
2. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабр. Т.: Маънавият, 2004, 190 б.
3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. Т.: Муҳаррир, 2011, 88 б.